

BEVOSITA METOD (DIRECT METHOD)

Umarova Zahroxon Sanjarbek qizi

Qo'qon davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17659151>

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilini dolzarbligi, bu tilni o'rganish uchun qanday metodlardan foydalanish kerakligi va shu metodlar qatorida Bevosita metodi (Direct Method) haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Bu metodning asosiy prinsiplari –dars jarayonida ona tilidan foydalanmaslik, tilni tabiiy muhitda o'rgatish, og'zaki nutqni ustuvor rivojlantirish, so'z va iboralar bevosita predmet yoki harakat orqali tushintirish kabi jihatlar yoritib beriladi. Maqolada bevosita metodning afzalliklari bilan bir qatorda uning cheklovlari ham ko'rib chiqilib, zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Bevosita metod, ingliz tili, chet tili o'qitish, og'zaki nutqni rivojlantirish, kommunikativ yondashuv, ona tilida foydalanmaslik.

Kirish. Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish masalasi ta'lim tizmining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Til o'rgatish metodlarining xilma-xilligi o'qituvchidan har bir uslubning mazmunini, imkoniyatlarini va cheklovlarini chuqur anglashni talab qiladi. Shunday metpdlardan biri –bevosita metod (direct method) bo'lib, u chet tilini tabiiy muhitga yaqin sharoitda o'rganish g'oyasiga asoslanadi. Mazkur metodning asosiy tamoyili ona tilidan foydalanmaslik, ya'ni o'quvchini to'g'ridan to'g'ri o'rganilayotgan til muhiti ichiga kiritishdan iborat. Shu bois u ko'pincha "tabiiy o'qitish usuli" sifatida ham tilga olinadi. Bevosita metod ayniqsa yosh o'quvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchn qulay hisoblanadi. Chunki bolalar tilni tabiiy tarzda –eshitish, ko'rish, takrorlash va muloqot jarayonida o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Metodning tarkibida shaxsiy tajriba, jonli muloqot, predmetva harakatlar orqali tushitirish, ko'rgazmalik, o'yin elementlari kabi samarali yondashuvlar ustovor o'rin tutadi. Bu esa o'quvchilarda tilga qiziqish uyg'otadi, faol istirokni kuchaytiradi va dars jarayonini jonlantiradi. Shu bilan birga, bevosita metodning afzalliklari qatorida o'quvchilarning talaffuzini to'g'ri shakllantirish, real muloqotga tez kirishish, so'z va iboralarining amaliy qo'llanishini osonroq o'zlashtirish kabi jihatlar ham mavjuda. Biroq metodning barcha ijobiy tomonlariga qaramay, uni to'liq qo'llash uchun o'qituvchidan yuqori darajadagi til kompetensiyasi, kenga ko'rgazmali materallari va puxta metodik tayyorgarlik talab etiladi.

Tahlil va muhokama. Ushbu tahlilda bevosita metodning o'quv jarayonidagi qo'llanish mexanizmlari, psixolingvistik asoslari va o'quvchi nutq faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Asosiy nazariy manbalar sifatida oral communication nazariyasi, Krashenning input modeli, shuningdek, an'anaviy gramatika-tarjima metodlari bilan qiyosiy tahlil ishlatiladi. (3-56)

Tabiiy muhit yaratish –bevosita metod bolalarda tilni tabiiy idrok etish, eshitish va ko'rish orqali uzluksiz o'rganish imkonini oshiradi.(2-78) O'quvchilar o'qituvchining uzluksiz inglizcha murojatlari orqali tilning intonatsiyasi, urg'u va talaffuz xususiyatlarini tabiiy idrok etadi. O'quvchilar grammatik qoidalarni kitobdan yodlamaydi. Ular real nutqda uchragan shakllarini eshitib, kuzatib va taqlid qilib o'zlashtiradilar. Bu usul kichik yoshdagi o'quvchilarda ayniqsa samarali bo'lgan. Metodning interaktivligi (rol o'yinlari, dialoglar, harakatli mashqlar) o'quvchi faol ishtirokini oshiradi. Bu esa "effective filter"ni pasaytirib, o'rganishni osonlashtiradi. Tezkor

ogʻzaki nutq shakllanishi rasm, predmetlar, imo-ishora va namoyish asosida oʻrgatilgan lugʻat oʻquvchining faol nutqiga tezroq oʻtadi. Tarjimasiz oʻqitish oʻquvchilarning fikrini toʻgʻridan-toʻgʻri ingliz tilida shakllantirishiga yordam beradi. Kuzatish va idrokga asoslangan oʻrganish kichik yoshdagilar uchun aynan inglizcha eshitilgan jummalarni harakat, buyum yoki rasm bilan bogʻlash osonroq kechadi. Tarjima boʻlmagani sababli oʻquvchilar ona tili tovushlarini inglizcha talaffuzga aralashtirmaydi. Bevosita metod talaffuzni shakllantirishda eng samarali metodlardan biridir, chunki oʻquvchi ona tili orqali emas, toʻgʻridan-toʻgʻri inglizcha akustik obrazlar orqali oʻrganadi.

Metod koʻrgazmalilikka tayanganligi sababli,:

- rasm,
- predmetlar,
- multimediya vositalari

talab qilinadi. Resurs yetishmasa, metodlarning samarasi pasayadi.

Masalan, perfect zamonlari, qoʻshma gaplar yoki moddalarning nozik farqlarini faqat misollar orqali anglatish koʻpchilik oʻquvchilar uchun murakkab kechishi mumkin. Shu bois ushbu metod koʻp hollarda boshlangʻich bosqich uchun eng mos hisoblanadi. Agar oʻqituvchi tilni mukammal bilmasa, jarayonning tabiiyligi buziladi. Bu esa metodning asosiy falsafasiga zid.

Oʻquvchilar faqat dars paytida tilni eshitsalar, metodning samarasi sust boʻladi. Shu sababli qoʻshimcha:

- tinglov materiallari,
- inglizcha multfilmlar,
- sinf ichida qisqa dialoglar taklif etiladi.

Shunga qaramay, bevosita metodning oʻziga xos kuchli tomoni shundaki, u oʻquvchilarni tilga qalban kirishga, emotsional bogʻlanish hosil qilishga, qoʻrquvni yoʻqotishga yordam beradi. Bu jihat ayniqsa 1-4 sinflar uchun juda muhimdir.

Bevosita metodning afzalliklari kop boʻlsa-da, ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, murakkab Grammatik qoidalarni faqat bevosita yoʻl bilan tushuntirish kichik yoshli oʻquvchilar uchun hamisha samarali boʻlavermaydi. (4-98) Shuningdek, metodning asosiy tayanchi boʻlgan koʻrgazmachilik, multimodal materiallar yetarli boʻlmasa, oʻquv jarayoni sekinlashishi mumkin. Shunga qaramay, ayniqsa boshlangʻich sinflarda ushbu yondashuv tilga emotsional qiziqshni kuchaytirishi, oʻquvchini qoʻrquv va psixologik toʻsiqlardan xoli qilishga yordam berishi isbotlangan. (1-85) Muallimning muloqot markazida boʻlishi, sinfda doimiy inglizcha eshitalishi –oʻquvchi ongida tilni real muloqot vositasi sifatida qabul qilishga sabab boʻladi.

Bevosita metod kichik yoshdagi oʻquvchilar uchun eng mos usullardan biri boʻlib, ularning tilga tabiiy moslashuvi, tezkor eshituv-idrokni shakllantirish va nutq muhitini yaratishda kata ahamiyatga egadir. Shuningdek, metod zamonaviy kommunikativ yondashuvning asosiy poydevorlaridan biri boʻlib, xizmat qiladi. Oʻqituvchi metodni qoʻllashda koʻrgazmalilik, interaktiv va multimodal materiallardan foydalanishni yoʻlga qoʻysa, natija yanada yuqori boʻladi. Metoddan samarali foydalanish uchun oʻqituvchi:

- koʻrgazmali vositalarni,
- multimodal materiallarni,
- dialog va rol oʻyinlar,

- talaffuz mashqlarini doimiy qo'llashi lozim.

Umuman olganda, bevosita metod zamonaviy kommunikativ yondashuv, CLT, Natural Approach kabi metodlarning tarixiy ildizi bo'lib, bugungi o'quv jarayonida ham o'z faoliyatini yo'qotmagan, aksincha, yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Bevosita metod (Direct Method) chet tillarini o'qitish tarixidagi eng muhim metodlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning ilmiy-pedagogik qiymati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu metodning asosiy g'oyasi — tilni tarjima orqali emas, balki tabiiy muloqot muhitida egallashdir. Bevosita metodning paydo bo'lishi XIX asr oxiridagi til o'qitish amaliyotida yuzaga kelgan muhim ehtiyojlar, xususan, grammatikani quruq yodlatishga asoslangan an'anaviy yondashuvning natija bermay qo'yishi bilan bog'liq bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, bevosita metod til o'rganishni insonning tabiiy nutq egallash mexanizmlariga yaqinlashtiruvchi yangi bosqich sifatida tarixiy qiymatga ega. Avvalo, metodning asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchini tilni o'rganish jarayonining markaziga qo'yadi, ya'ni o'quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Tilni eshitish va aytish orqali egallash insonning tabiiy psixolingvistik jarayonlariga mos keladi. Ushbu metod Vygotskiy va Leontyev kabi olimlarning faoliyatga asoslangan ta'lim nazariyalari bilan uyg'unlashadi: bilim tashqi faoliyat orqali ichki ong jarayoniga aylanadi. Shuningdek, Krashen'ning "affective filter" (emotsional to'siq) nazariyasiga ko'ra, inson tinch, qiziqarli va bosimsiz muhitda tilni oson o'rganadi. Bevosita metodning samaradorligi aynan shundan kelib chiqadi, chunki bu usul darsni jonli, harakatli, ko'rgazmali va emotsional mazmunli qiladi.

Metodning o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning ko'rgazmalilikka asoslanishidir. Lug'at tarjima emas, balki predmetlar, rasmlar, harakatlar, mimika va real vaziyatlar orqali anglatiladi. Bunday yondashuv semantik bog'lanishlarni mustahkamlaydi, o'quvchida so'zning ma'nosi bilan real tasavvur o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik yuzaga keladi. Shuning uchun ham bevosita metod o'quvchilarning lug'at boyligini tez va mustahkam oshirishga xizmat qiladi. Nutqning to'rt komponentidan — tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishdan — bevosita metod avval ikkitasi, ya'ni tinglash va gapirishga e'tibor qaratadi. Bu tartib ona tilini egallash jarayoniga mos keladi: avval eshitamiz, keyin gapiramiz, so'ng o'qiymiz va yozamiz. Bunday ketma-ketlik ayniqsa maktabning boshlang'ich sinflari uchun nihoyatda muvofiqdir. O'quvchi avval muloqot qilishni o'rganadi, so'ng grammatik qoidalarga qaytadi. Bu esa nazariyani amaliyot orqali anglashga imkon beradi. Shunga qaramay, bevosita metodning cheklangan jihatlari ham mavjud. Ulardan eng muhimi — murakkab grammatik tushunchalarni tushuntirish qiyinligidir. Perfect zamonlari, qo'shma gaplar yoki modal fe'llarning nozik ma'nodagi farqlarini o'quvchiga faqat misollar orqali tushuntirish ko'p vaqt talab qiladi va ba'zida yetarlicha samarali bo'lmaydi. Shuningdek, metod resurs talab qiladi: ko'rgazmalilik, multimedia vositalari, rasm va predmetlar bo'lmasa, metodning tabiiyligi yo'qoladi. O'qituvchidan ham yuqori darajadagi til bilimi, jonli muloqot olib borish ko'nikmasi va ijodiy yondashuv talab etiladi. Aks holda metodning mohiyati buziladi..

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2007.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2001.
3. Krashen, S. The Input Hypothesis: Issues and Implications. Longman, 1985.
4. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University

Press, 2000.

5. Richards, J.C., & Rodgers, T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2001.